



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI IZOHLI, SINONIM, PARONIMLAR LUG'ATINING O'RGANILISHI VA AHAMIYATI

Shahnoza Muhammadiyeva

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Til va adabiyot kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligidagi izohli, sinonim, paronim lug'atlarining yaratilishi hamda ulardan o'quv jarayonlarida foydalanish masalasi yoritib berilgan. Tilshunosligimizdagi ilk yaratilgan lug'atlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: leksika, lug'aviy birliklar, lug'at, uslub, metodika, adabiy me'yор, sintaktik sinonimiya.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, madaniy va milliy qadriyatlarga e'tibor kuchayganligi munosabati bilan o'zbek tilining so'z boyligi yanada kengroq qamrab olingan yangi Izohli lug'at nashr etish zarurati paydo bo'ldi. O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti va «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyotida o'zbek tilining ko'p jildli Izohli lug'ati nashri ustida ish olib borilyapti. Mustaqillikdan so'ng izohli, imlo lug'atlarining nafaqat qog'oz variant balki ushbu lug'atlarning elektron ko'rinishlari ham tuzildi. Bunga misol tariqasida Shohrux Abduraimovning Izohli elektron lug'atini keltirish mumkin.

O'zbek lug'atchiligi tarixi boy madaniyati bilan birga uzoq tarixga ham egaligini ko'rishimiz mumkin. "Devoni lug'ati – turk", "Abushqa", "Sangloh" va boshqa lug'atlar o'zidan keyin tuzilgan lug'atlar uchun ajoyib manba vazifani o'tadi. Barcha lug'atlar Mahmud Koshg'ariy davridan boshlab o'rta asrlarda yashab o'tgan Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy zamonida iste'molda bo'lgan so'zlarning bizgacha yetib kelishini taminlab beradi. Aynan, sof turk tilidagi so'zlarning bizgacha yetib kelishiga katta xizmat qilib kelmoqda.

O'quvchining dunyoqarashi va so'z boyligi uning o'z fikrini ifoda etish aks etadi. Kishilar o'rtasidagi kommunikatsiyada ulardagi so'z qo'llash mahorati



namoyon bo‘ladi. So‘z boyligi keng bo‘lgan o‘quvchi axborot almashinuv jarayonida o‘z fikrini erkin bayon eta oladi. Shu bois so‘z boyligini oshirish va ulardan samarali va to‘g‘ri foydalana olishda izohli lug‘atlarining o‘rni muhim hisoblanadi.

Paronimlar izohli lug‘ati, sinonimlar izohli lug‘ati, omonimlar izohli lug‘ati, antonimlar izohli lug‘atlari nutqning aniqligi, jo‘yaliligi, mantiqiyligi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Paronimlar izohli lug‘atlaridan foydalanish orqali o‘quvchi nutqda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash va undan foydalana olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Sinonimlar izohli lug‘atlari orqali o‘quvchining boshqa bir so‘z o‘rnida uning muqobil variantini tanlay olish ham uning so‘zamolligini anglatadi. Aynan sinonimlar lug‘ati nimaga kerak? Qanday tashkil qilinsa, o‘quvchi va o‘qituvchi uchun foydali bo‘ladi?, kabi savollarga javob izlashga harakat qilamiz. Professor Baxtiyor Mengliyev o‘zining maqolasida shunday deydi: “Lug‘at o‘quvchini o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi. Uning beminnat doimiy hamrohi bo‘ladi, barcha savollariga javob bera oladigan yordamchi hisoblanadi. O‘quvchining so‘z boyligining oshishida sinonimlar o‘quv lug‘atining o‘rni katta. Misol tariqasida adabiyot darslariklarida, ona tili darsliklarida berilgan matnlarning ost qismida o‘quvchi uchun ba’zi ma’nosи tanish bo‘lmagan so‘zlar lug‘ati berib o‘tiladi. Ammo o‘quvchi matnni to‘liq tushunib yetishi uchun bu kabi lug‘atlar kamlik qiladi”. Biz shundan anglashimiz mumkinki, ayni paytda nafaqat adabiyot darslarida balki ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun aynan sinonimlar lug‘ati zarur hisoblanadi. Yozma matnlar yaratish, insho, esselarni yozishda, ya’ni yozish ko‘nikmasining rivojlanishida, og‘zaki nutqni rivojlantirishda ham fikrni to‘g‘ri bayon etish uchun aynan sinonimlar lug‘ati yordamga keladi. Sinonimlar izohli lug‘ati o‘quvchining uslublardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi. Masalan, so‘zlashuv uslubida qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlarni badiiy uslubda, badiiy uslubda qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlarni



so‘zlashuv uslubda qo‘llash orqali uslubiy xatoliklarni vujudga keltiradi. Anvar doskada mavzuni bayon ayladi. (aslida bayon ayladi emas balki mavzuni haqida gapirdi, mavzuni bayon qilib berdi, mavzuni so‘zjadi kabi). Gulnozaning ko‘ngli qo‘rquvdan yorilib ketdi. Aslini olganda, “ko‘ngli” emas balki “yuragi” tarzida bo‘ladi. Har bir sinonimik qatorda dominatta so‘z bo‘lishi hammamizga ma’lum. Yuz, chehra, oraz, aft, bet, bashara, turq bu yerda yuz so‘zi uslubiy betaraf, chehra, oraz so‘zlar esa ko‘proq badiiy uslubga xos. Aft, bet, bashara, so‘zlar so‘zlashuv uslubida foydalilaniladi. Bu uslubiy bo‘yoqdorlikni yuzaga keltiradi. Yuqorida keltirgan misollarimizdan bir qancha keltirishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, sinonimlar lug‘ati bizga nafaqat uslublardan o‘rinli foydalana olishimiz uchun, balki so‘z tanlash qobiliyatimizning ham rivojlanishiga yordam beradi.

Tilimizda ma’nosi bir belgi bilan farqlanadigan so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Asl- asil, azim-azm, adl-adil, shoh-shox bu kabi so‘zlar ro‘yxatini bir qanchaga yetkazish mumkin. Darsliklarimizda paronimlar mavzulari keng yortib berilgan. Mavzuni mustahkamlash uchun bir qancha mashqlar ham berib o‘tilgan. Sinonim, antonim, omonimlar bilan bir qatorda, til leksik tizimining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, og‘zaki va yozma nutqimiz uchun juda muhim bo‘lgan tilning grammatik qatlami hisoblanadi. Paronimlardan to‘g‘ri foydalanish barkamol, madaniy nutq uchun zarur shartdir va ularandan aksincha foydalanish nutq madaniyatining pastligidan dalolat beradi. Yozma nutqda esa o‘quvchilardan olinadigan diktantlar, bayon, esse, insho kabi yozma ish turlari olinadigan holatlarda ham paronimlar bog‘liq xatoliklar yuz bermasligi uchun ma’no farqlaydigan so‘zlar, ya’ni paronimlarni farqlashi zarur hisoblanadi. Bunda aynan o‘quv lug‘atlari yordam berishi mumkin. Paronimlar izohli lug‘ati orqali shu tilning muayyan lug‘aviy me’yorlarini yetarli darajada egallash mumkin. Paronimlar nutqda ifoda vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Paronimlardan mohirona



foydalinish fikrni to‘g‘ri va aniq ifodalashga yordam beradi, nozik, semantik ma’nolarni farqlashga yordam beradi.

Badiiy adabiyotda, publitsistikada, ommaviy so‘zlashuvda nutqning ifodaviyligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida paronimlardan keng foydalilaniladi. Paronimlarni ataylab adashtirib qo‘llash kulgili holatni keltirib chiqaradi; bunday qo‘llanishlar so‘z o‘yinida, askiyada, shuningdek, personajlarning nutqiy xususiyatlarini ochib berishda zarur bo‘ladi. Kuzatilgan holatlardagi xatolar ya’ni juda keng tarqalgan leksik xatolar hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, sinonim izohli lug‘atlari kabi paronimlar izohli lug‘atlari orqali ham nafaqat yozma, balki og‘zaki nutqdagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Bu kabi izohli lug‘atlar o‘quvchining yozma va og‘zaki savodxonligining rivojlanishiga olib keladi.

Tilimizga ona tilimizda yozilishi va aytishida bilan bir xil yoki aytishida bir xil so‘zlar kirib kelgan. Masalan, bog‘(mevali daraxtlar o‘sgan joy) – bog‘ (tugilgan narsa), yon (olovning yonishi) – yon(tomon ma’nosida). So‘zlardagi paradigmatic(o‘xhashlik) xususiyatlari o‘ziga xos.

O‘quvchining omonimlardadan to‘g‘ri foydalaniishi orqali biz og‘zaki nutqning samaradorligiga va mazmundorligiga erishishimiz mumkin. Omonimlardan noto‘g‘ri foydalaniish og‘zaki nutqda g‘alizlikka olib kelishi mumkin. Bugungi kunda omonimlar o‘quv lug‘atlari ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga molik.

Omonimlar izohli lug‘ati o‘z navbatida, o‘qib tushunish, ya’ni matnda kelyotgan so‘zning qaysi ma’noda qo‘llanayotganini bilish va ajrata olish, uni kerakli o‘rinlarda qo‘ya olish uchun, tinglab tushunish, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida nutqning bardavomligi, ravonligi, tushunarligi va samaradorligiga, uzliksizligiga erisha olish, yozish ko‘nikmasi diktant, esse, bayon va insho kabi yozma ish turlarida omonimlardan to‘g‘ri foydalana olish qobiliyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Umuman, omonimlar izohli



lug‘atlari o‘quvchining til savodxonligiga erishish va undan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi.

Antonimlar tilimizda qarama-qarshi ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar hisoblanadi. Antonimlarning asosiy stilistik vazifasi esa antiteza yasashning leksik vositasidir. Masalan, nafratlanmoq, sevmoq kabi.

Bizni qurshab turgan olamni sezgi a’zolarimiz orqali bosh miyamizga bergan ma’lumoti orqali eslab qolamiz. Bilish va anglash jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o‘zaro o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun hayotimiz zidlashlarga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Rumiyning ta’kidlashicha, har qanday narsaning qimmati ziddi bilan a’yon bo‘ladi, ziddi bo‘lmagan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqari. Antonimlar inson faoliyatidagi eng muhim siyosiy, axloqiy qarashlar umumlashmasini aynan ifodalashga qulay usul hisoblanadi. Antonimlar ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanilib, qarama-qarshi tushuncha uslubini yaratish uchun xizmat qiladi.

Antonimlar izohli lug‘ati tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Ushbu lug‘atlar so‘zlarning leksik ma’nolar tartibini belgilashda, so‘zlarning yangi ma’nolarini ochishda yordam beradi. Bu kabi lug‘atlar o‘quvchining fikrini obrazli qilib bayon etish hamda stilistik bo‘yoqni kuchli qilib ifodalashda yordam beradi. Nutqning ifodaliligi, ixchamligi va o‘tkirligi uning qimmatini oshiradi. Bu borada antonimlar izohli o‘quv lug‘atli foydadan xoli bo‘lmaydi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, antonimlar izohli o‘quv lug‘atlari ham o‘quvchi nuqtiqining ta’sirchanligi va ifodaviyligini oshishida yordam beradi. Asosan, o‘g‘zaki nutqning rivojlanishi uchun katta xizmat qiladi. Sinonimlar, paronimlar, hamda omonimlar qatorida antonimlar izohli lug‘ati ham avvalo, bolaning nutqi ravon, o‘qib tushunish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga molik. Nutqni o‘stirishga xizmat qiladi. Hozirgi ona tili ta’limining maqsadi ham shundan iboratdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. - Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Ne'matov H. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.–T., "O'qituvchi", 1995.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. T. I. – M.: Русский язык, 1981.
4. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rghanish (shaxs mikromaydoni):